

**H.M.ABDULLAYEV NOMIDAGI GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

“GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA INSTITUTI” DM

OROLOV AZIZBEK KAIMJANOVICH

**ZIYOVUDDIN TOG‘LARI GRANITOIDLARINING
PETROGEOKIMYOSI, MINERALOGIYASI VA MA‘DANDORLIGI
(OQMOZOR, GUNJAK VA MAYZAK INTRUZIVLARI MISOLIDA)**

04.00.03 – Geotektonika va geodinamika. Petrologiya va litologiya

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Geologiya-mineralogiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по геолого-минералогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on geological-mineralogical sciences**

Orolov Azizbek Kaimjanovich

Ziyovuddin tog‘lari granitoidlarining petrogeokimyosi, mineralogiyasi va ma‘dandorligi (Oqmozor, Gunjak va Mayzak intruzivlari misolida) 3

Оролов Азизбек Каимжанович

Петрогеохимия, минералогия и рудоносность гранитоидов гор Зиаэтдин (на примере Акмазарского, Гунджакского и Майзакского интрузивов) 19

Orolov Azizbek Kaimjanovich

Petrogeochemistry, mineralogy and ore bearing of the Ziyovuddin Mountains granitoids (by the example of Akmazar, Gunjak and Mayzak intrusives) 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 40

**H.M.ABDULLAYEV NOMIDAGI GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

“GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA INSTITUTI” DM

OROLOV AZIZBEK KAIMJANOVICH

**ZIYOVUDDIN TOG‘LARI GRANITOIDLARINING
PETROGEOKIMYOSI, MINERALOGIYASI VA MA‘DANDORLIGI
(OQMOZOR, GUNJAK VA MAYZAK INTRUZIVLARI MISOLIDA)**

04.00.03 – Geotektonika va geodinamika. Petrologiya va litologiya

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/GM158 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti Davlat muassasasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ingeo.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziyo.net) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Karabayev Mamatxan Sadirovich
geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Mamarozikov Usmonjon Dovronovich
geologiya-mineralogiya fanlari doktori

Shukurov Anvar Hamraqulovich
geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: "Regionalgeologiya" DUK

Dissertatsiya himoyasi H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti huzuridagi DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "15" sentabr soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64g. Tel.: (99871) 209-11-32 (5505), E-XAT: ingeo@esat.uz; E-mail: ingeo@ingeo.uz).

Dissertatsiya bilan Geologiya va geofizika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64g. Tel.: (99871) 209-11-32 (5505).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "25" avgustda tarqatildi.
(2023-yil "25" avgustdagi 14-raqamli restr bayonnomasi)



X.D.Ishbayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, g.-m.f.d., prof.

E.M.Amirov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.-m.f.f.d. (PhD).

P.S.Sultonov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, g.-m.f.d., prof.

Ray

KIRISH

(falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida so‘nggi yillarda asl va nodir metalli konlarni bashoratlash, tog‘ jinslari va ma‘dan hosil bo‘lishning zamonaviy ilmiy asoslarini ishlab chiqish maqsadida alohida maydonlardagi intruziv hosilalarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda ushbu hosilalarning petrologik-geokimyoviy xususiyatlarini aniqlash borasida olib borilgan tadqiqotlar natijalari ularning foydali qazilma konlarini hosil bo‘lishidagi roli bashorat-qidiruv me‘zonlarini ishlab chiqish kabi bir qator muammolarni hal qilishda muhim axborot manbasi bo‘lib xizmat qiladi.

Jahon miqyosida magmatik hosilalar va ular bilan bog‘liq metasomatitlar hamda ma‘danlashuvning genetik bog‘liqligini aniqlash bo‘yicha bir qator maqsadli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, nordon granitoid intruzivi va turli tarkibli daykali hosilalarning asl va nodir metalli ma‘danlashuvlar bilan munosabatlari, hamda endogen ma‘danli konlarni qidirishda ilmiy asoslangan petrologik-geokimyoviy mezonlar yaratishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda Janubiy Tiyon-Shonning Zirabuloq-Ziyovuddin, Markaziy Qizilqum mintaqalaridagi asl va nodir metall konlarida intruziv va metasomatik tog‘ jinslarini o‘rganish bo‘yicha muayyan tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, intruziv hosilalarning petrologik-geokimyoviy, aksessor-mineralogik tarkibi, metasomatitlarning endogen ma‘danlashuv hosil bo‘lishidagi roli aniqlandi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida “Sohani yanada rivojlantirish, takomillashtirish, jadallashtirish”¹ bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, Ziyovuddin tog‘laridagi intruziv hosilalar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan metasomatitlarning petrologik-geokimyoviy xususiyatlarini aniqlash va qidiruv mezonlarini ishlab chiqib amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-martdagi PQ-3578-son “O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 23-iyuldagi PQ-4401-son “Yer qa‘rini geologik jihatdan o‘rganishni yanada takomillashtirish va 2020-2021-yillarda mineral-xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash Davlat dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi va 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilg‘or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni.

vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertasiya ishining tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning “Yer to‘g‘risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyolarni qayta ishlash)” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqot maydonida intruziv jinslar keng tarqalgan bo‘lib, ular turli yoshdagi yotqiziqlar ichida shtok ko‘rinishidagi tanalar va daykalardan iborat. Ziyovuddin tog‘laridagi ushbu intruziv hosilalar A.S.Adelung, I.H.Hamrabayev, X.N.Baymuxammedov, Y.I.Barkovskaya, E.S.Sorokin, E.P.Izox, Z.A.Yudalevich, F.K.Divayev, N.A.Losev, G.K.Lyashenko, V.G.Gorev, E.B.Bertman, I.V.Mushkin, A.F.Sviridenko va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Shu vaqtgacha Ziyovuddin tog‘lari hududida turli mavzudagi tadqiqotlar amalga oshirilganiga qaramasdan magmatik, postmagmatik hosilalar va ma‘danlashuvga tegishli bo‘lgan bir qator muammolar o‘z yechimini kutmoqda. Jumladan, hudud magmatizmidagi so‘ngi bosqich daykalari, intruziv tog‘ jinslari moddiy tarkibining xususiyatlari, aksessor minerallarining xossalari va hududdagi intruziv jinslarning ma‘danlashuvga aloqasi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining: (2018-2020) 10-18/4 – raqamli “Ziyovuddin tog‘larida ma‘danlashuv hosil bo‘lishi va joylashuvida magmatik hosilalarning ahamiyatini baholash” mavzusidagi xo‘jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Ziyovuddin tog‘laridagi granitoid intruzivlari va ular bilan bog‘liq metasomatitlarning petrografik va petrogeokimyoviy xususiyatlarini hamda ma‘danlashuvga aloqadorligini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Ziyovuddin tog‘laridagi granitoidlar (Oqmozor, Gunjak va Mayzak) va ular bilan bog‘liq metasomatitlarni mineralogik-petrografik tavsiflash;

hududdagi granitoidlar va skarnlarning petrokimyoviy va geokimyoviy xususiyatlarini aniqlash;

Oqmozor, Gunjak va Mayzak intruzivlarining jins hosil qiluvchi, ma‘danli va aksessor minerallarini zamonaviy tadqiqot usullarda o‘rganish;

magmatik tog‘ jinslari bilan endogen ma‘danlashuvning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash uchun ularning geokimyoviy xususiyatlarini ochib berish;

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida Ziyovuddin tog‘laridagi Oqmozor, Gunjak va Mayzak intruzivlari olingan.

Tadqiqotning predmeti Ziyovuddin tog‘laridagi intruziv (Oqmozor, Gunjak, Mayzak) tog‘ jinslari va ular bilan bog‘liq metasomatitlar, hamda turli tarkibli daykali hosilalar, ularning petrologik-mineralogik va geokimyoviy xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda dala sharoitida petrografik-mineralogik kesmalar o'tilgan, batafsil geologik kuzatuv nuqtalari tavsiflangan, tog' jinslaridan olingan namunalarning mineral tarkibi shaffof va silliqlangan shliflar tavsifi bo'yicha "Nikon ECLIPSE LV100N POL" elektron mikroskoplarida, hamda JXA-8800R "Superprobe Jeol" mikrozonida, kimyoviy elementlarning miqdori mass-spektrometr ICP-MS tahlillari yordamida o'rganilgan hamda petrografik, mineralogik, petrokimyoviy va geokimyoviy tadqiqotlar natijalari kompyuter dasturlari (Excel, Petro Explorer) yordamida maxsus diagrammalar tuzilgan va tahlil qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Oqmozor, Gunjak va Mayzak intruziv hosilalari va ular bilan bog'liq bo'lgan metasomatitlarning batafsil mineralogik-petrografik xususiyatlari aniqlangan;

intruziv tog' jinslarining petrokimyoviy xossalari va ularning tarkibiy hamda genetik xususiyatlari asoslangan;

ilk bor Ziyovuddin tog'lari intruziv hosilalarida bir qator yangi aksessor minerallar ajratilgan, hamda ularning kimyoviy tarkiblari aniqlangan;

intruzivlarning asl va nodir metalli ma'dandorlikga bo'lgan aksessor mineralogik, geokimyoviy ixtisoslashuvi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Oqmozor, Gunjak va Mayzak intruzivlarining hamda ular bilan bog'liq bo'lgan skarnlar va greyzenlarning mineralogik-petrografik xususiyatlari aniqlangan;

Magmatik hosilalarda oltin va nodir metalli ma'danlashuvi uchun qidiruv darakchilari hisoblangan bir qator elementlarning nisbatan yuqori miqdorlari ajratilgan;

Oqmozor, Gunjak va Mayzak intruzivlarining tarkibida bir qator yangi aksessor minerallar aniqlangan va ularning tarkibiy xususiyatlari ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi o'rganilayotgan ob'ektlarda granitoid intruzivlarni tadqiq etish borasidagi an'anaviy usullardan tashqari zamonaviy geokimyoviy, mineralogik va petrografik usullar qo'llanildi hamda ularning natijalari statistik tahlil qilinganligi, ularning jins hosil qiluvchi, aksessor va ma'danli minerallari tarkibi yuqori aniqlikga ega zamonaviy analitik uskunalari - "Nikon ECLIPSE LV100N POL" elektron mikroskopi, JXA-8800R "Superprobe Jeol" rusumli mikroanalizatorlar yordamida o'rganilganligi bilan tavsiflangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Ziyovuddin tog'laridagi Oqmozor, Gunjak va Mayzak intruzivlarini tashkil qilgan magmatik hosilalar va ular bilan bog'liq bo'lgan metasomatitlarning mineralogik – petrografik, petrogeokimyoviy xususiyatlari aniqlanganligidan iborat; olingan ma'lumotlar tog' jinslarining hosil bo'lish sharoitlari va o'zaro ketma – ketlik munosabatlarini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati hududdagi intruziv hosilalarning tarkibiy xususiyatlari va ma'danlashuvga aloqadorligi ochib berilganligida o'z ifodasini topgan, magmatik tog' jinslarining ajratilgan geokimyoviy ixtisosligi hududda qimmatbaho va nodir metalli konlarni bashoratlash ishlarida ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ziyovuddin tog‘lari granitoidlarining petrogeokimyoviy va mineralogik xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

magmatik hosilalar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan metasomatitlarning mineralogik – petrografik, petrogeokimyoviy xususiyatlari “O‘zbek geologiya qidiruv” AJning amaliyotiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasining 2023-yil 6-yanvardagi 04-29-son ma‘lumotnomasi). Natijada, magmatik tog‘ jinslarining petrologik-geokimyoviy xususiyatlarini batafsil tavsiflashga imkon bergan.

Ziyovuddin tog‘lari intruziv hosilalari tarkibida ilk bor aniqlangan aksessor minerallarning kimyoviy xususiyatlari “O‘zbek geologiya qidiruv” AJning amaliyotiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasining 2023-yil 6-yanvardagi 04-29-son ma‘lumotnomasi). Natijada, maydondagi magmatik hosilalarni batafsil aksessor mineralogik tavsiflash imkonini bergan.

hududdagi magmatik tog‘ jinslarining ma‘danlashuvga geokimyoviy ixtisoslashuvi “O‘zbek geologiya qidiruv” AJning amaliyotiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasining 2023-yil 6-yanvardagi 04-29-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ajratilgan hududda qimmatbaho va nodir metalli konlarni bashoratlash ishlari uchun ilmiy asos sifatida foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalar xulosasi 5 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Ilmiy tadqiqot ishi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, ulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tarkibiga kiruvchi ilmiy natijalarni chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 5 tasi respublikada, 1 tasi xorijda, konferensiya materiallari to‘plamlarida 7 ta, jumladan 2 tasi respublika, 5 tasi xalqaro.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, fan va texnologiyalari rivojlantirish bo‘yicha Respublikamizda olib borilayotgan davlat ilmiy-texnik dasturlarining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzu doirasida muammoning o‘rganilganlik darajasining sharxi yoritilgan, maqsad va vazifalari asoslangan, olingan natijalarning ilmiy yangiligi, ishonchliligi, amaliy ahamiyati va joriy qilinganligi, chop qilingan ishlar, dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Muammoning o‘rganilganlik darajasi va tadqiqotlarning ilmiy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida

Ziyovuddin tog‘lari magmatik hosilalarining o‘rganilganlik darajasining sharhi hamda petrologik-geokimyoviy tadqiqot usullariga doir ayrim ma’lumotlar keltirilgan. Bugungi kunda ma’danlashuvning intruziyalar bilan genetik aloqasi masalalari metallogeniyaning dolzarb muammosi sifatida geologik qidiruv ishlarini tashkil etishda katta amaliy qiziqish uyg‘otadi.

Akademik H.M.Abdullayevning “Granitoid intruziyalar bilan ma’danlashuvning genetik bog‘liqligi”, “Daykalar va ma’danlashuv” kabi ilmiy ishlari yuqoridagi masalalar yechimiga bag‘ishlangan. Petrologik tadqiqotlar asosida 50 yillarda H.M.Abdullayev ishlab chiqqan va keyinchalik bir qator tadqiqotchilar, xususan I.H.Hamrabayev, K.L.Babayev, I.M.Isamuxamedov, F.Sh.Rajabov, I.M.Mirxodjiyev, M.S.Kuchukova, F.A.Usmonov, T.N.Dolimov, Z.A.Yudalevich, H.N.Boymuxamedov, A.S.Adelung, Y.I.Barkovskaya, A.F.Sviridenko, Y.I.Krilova, P.T.Azimov, Sh.R.Rasulov, E.P.Izox, G.Gorev, E.B.Bertman, F.K.Divayev va boshqalar tomonidan rivojlantirilgan nazariyalar asosida, ma’danlashuv granitoid intruzivlar bilan genetik bog‘liqligi, hamda ma’dan hosil bo‘lish jarayonlari ko‘p bosqichli ekanligi to‘g‘risidagi tasavvurlar yotadi. Ushbu nazariy ishlanmalar asnosida turli ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilmoqda va ularning natijalari ko‘plab ilmiy asarlarda, maqolalarda, ilmiy konferensiya to‘plamlarida aks etgan va ular keyingi tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Albatta olib borilgan tadqiqotlar natijasida yuqorida qayd etilgan masalalarning bir qatoriga ma’lum bir darajada yechim topilgan bo‘lsada, ayrim muammolarni hal etishda yanada chuqurroq izlanishlar olib borish talab etilishi takidlangan.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bob - **“Ziyovuddin tog‘larining geologik tuzilishi va ma’dandorligining qisqacha tavsifi”** da tadqiqot maydonining geologik tuzilishidagi asosiy xususiyatlari va ma’dandorligiga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Ziyovuddin tog‘lari Janubiy Tiyon-Shon struktura – formatsiya zonasining Zarafshon-Turkiston burmalangan sistemasida joylashgan. Paleozoy fundamenti quyi paleozoyning (quyi-yuqori silur) cho‘kindi – metamorfik va qoplama qismi mezokaynozoy yotqiziqalaridan tashkil topgan.

Ziyovuddin tog‘larining geologik rivojlanish bosqichida bir qator yirik davrlar ajratiladi: birinchi davr – kaledon: meridional yo‘nalishdagi burmali strukturalarning hosil bo‘lishi bilan bog‘liq; ikkinchi davr – gersin: shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishdagi yirik uzilmali strukturalar va keng ko‘lamdagi granitoidli magmatizmning rivojlanishi bilan namoyon bo‘lsa; uchinchi davr mezokaynozoy tektogenez jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Ulardan kaledon va gersin tektogenezida shakllangan strukturalar muhim ahamiyatga ega. Xususan, erta tektonomagmatik sikl – bir qator burmali va ularni murukkablashtiruvchi uzilmali struktura seriyalari shakllanishi bilan bog‘liq. O‘rta sikl – granitoidlarning hosil bo‘lishi va formatsiyalararo harakatlar bilan tavsiflanadi. Yakunlanuvchi sikl esa daykalarining rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

O‘rganilayotgan hududning intruziv magmatizmi granitoidli bo‘lib, granodiorit-adamellit-granit formatsiyasiga taalluqli va ular adamellit-granitli qoratepa-zirabuloq kompleksi sifatida ajratilgan. Ushbu kompleks yirik massivlardan - Markaziy Qoratepa (800 km²), Sariko‘l (20 km²), Lolabuloq (92 km²), Markaziy-

Zirabuloq (200 km²), Ketmonchi (17x72 km), Qorachaquduq (4,5 km²), Tim (~20 km²), Jalqir (6,5 km²), Qo‘shquduq (36 km²), Mayzak (4,5 km²), Oqmozor (25 km²) va boshqalardan tashkil topgan.

Ziyovuddin tog‘larining ma‘danli foydali qazilmalari sifatida oltin, kumush, qalay va volframlarni ko‘rsatish mumkin. Ular asosan subkenglik, shimoliy-g‘arbiy va shimoliy-sharqiy yo‘nalishdagi tektonik qurilmalar bilan bog‘liq burdalanish zonalaridagi hosilalarda va metasomatitlarda joylashgan, bu esa maydondagi ma‘dan joylashuvida uzilmali tektonik qurilmalarning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida **“Oqmozor, Gunjak, Mayzak granitoidlari va ular bilan bog‘liq bo‘lgan metasomatitlarning petrografik xususiyatlari”** ga oid masalalarni tavsiflashga bag‘ishlangan bo‘lib, granitoid intruzivlar va ular bilan bog‘liq metasomatitlarning mineral tarkibi, teksturaviy-strukturaviy belgilari ochib berilgan.

Ko‘p yillar davomida hududning magmatik hosilalari H.M.Abdullayev, I.H.Hamrabayev A.S.Adelung, X.N.Baymuxammedov, Y.I.Barkovskaya, E.S.Sorokin, N.A.Losev, G.K.Lyashenko, I.V.Mushkin, A.F.Sviridenko, Z.A.Yudalevich, E.P.Izox, P.T.Azimov, Sh.R.Rasulov, F.K.Divayev va b. tomonidan o‘rganilgan.

Qoratepa-Zirabuloq adamellit-granitli kompleksiga taalluqli *Oqmozor intruzivi* antiklinalning yadro qismida joylashgan va shimoliy-g‘arb tomon cho‘zilgan. Oqmozor intruzivining yer yuzasiga chiqib qolgan maydoni 22 km² ni tashkil etadi. Intruziv biotitli, porfirsimon va leykokratli granitlardan tashkil topgan. Oqmozor intruzivining mutlaq yoshi K-Ar usuli bo‘yicha 270 mln. ya‘ni P₁ davriga to‘g‘ri keladi (F.Askarov).

O‘rta-yirik donali porfirsimon biotitli granitlar. Strukturasi – gipidiomorf porfirsimon o‘rta donali, teksturasi – massiv. Mineralogik tarkibi: plagioklaz 35%, kaliyli dala shpati 30%, kvars 25%, biotit 5-7%, seritsit (plagioklazlar bo‘yicha rivojlangan) 1-2%, pelitomorf gilli moddalar (kaliyli dala shpati bo‘yicha rivojlangan) 3-5%, xlorit (biotit bo‘yicha rivojlangan) 0,5-1%, anataz va rutil (biotit bo‘yicha rivojlangan) 0,1-0,3%, apatit – mikroprizmatik kristallar ko‘rinishida uchraydi.

Mayda donali leykokratli granitlar. Strukturasi gipidiomorf mayda donali, teksturasi massiv. Mineralogik tarkibi: plagioklaz 25-30%, kaliyli dala shpati 35%, kvars 35%, biotit (u bo‘yicha rivojlangan leykoksen va xlorit bilan) 2-3% tashkil etadi.

Gunjak intruzivi Qarnob intruzividan 15 km g‘arbda joylashgan bo‘lib, intruziv asosan porfirsimon biotitli va leykokratli granitlardan tashkil topgan. Gunjak intruzivining zamonaviy erozion kesimida egallagan maydoni 5 km² ni tashkil etadi. Intruzivni tashkil etgan biotitli granitlar endokontakt qismlarda asta-sekin granodioritlarga, adamellitlarga va alyaskitlarga o‘tib boradi.

O‘rta-yirik donali biotitli granitlar. Tog‘ jinsining strukturasi gipidiomorf-o‘rta donali. Tekstura massiv. Tarkibida mayda kamroq granat donalari uchraydi. Mineral tarkibi quyidagicha: Plagioklaz 30-35%, kvars 25-30%, kaliyli dala shpati (mikropertitli) 25-30%, biotit 4-6%, granat 0,2-0,3%, epidot 0,1-0,2%.

Mayda donali leykokratli granit. Strukturasi gipidiomorf-mayda donali, teksturasi massiv. Tog' jinsining mineral tarkibi quyidagicha: kvars 30-35%, kaliyli dala shpati 25-30%, plagioklaz 30-35% (plagioklazlardagi sossyuritlashishi 15-20% gacha), biotit bo'yicha rivojlangan muskovit 0,5-1%, leykoksen 0,2-0,3%.

Mayzak intruzivi Ziyovuddin tog'larinig markaziy qismida, Qo'shquduq massivining shimoliy – sharqiy qismida joylashgan va Zirabuloq – Ziyovuddin plutonining gumbazlaridan biri hisoblanadi. Intruzivning yer yuzasiga chiqib qolgan sohasi 6 km² ni tashkil etadi. Mayzak intruzivi porfirsimon biotitli granit, granodiorit va alyaskitlardan tashkil topgan. Tomirsimon hosilalardan esa granit – aplitlar tarqalgan.

Biotitli granodiorit. Tog' jinsining strukturasi gipidiomorf, teksturasi massiv. Granodioritning mineral tarkibi quyidagicha: plagioklaz 45-50%, biotit 10-15%, kvars 15-20%, kaliyli dala shpati 10-15%, apatit 0,2-0,5%.

O'rta donali porfirsimon biotitli granit. Strukturasi porfirli, asosiy massa gipidiomorf-mayda donali, teksturasi massiv. Tog' jinsining porfir ajralmalari 10-15% (plagioklaz-albit, kvars va kamroq kaliyli dala shpati) gacha. Asosiy massa kvars, kaliyli dala shpat (mikroklinli), plagioklaz, biotit 7-10%, biotit bo'ylab rivojlangan xlorit, leykoksen bilan 0,3-0,5% tavsiflanadi. Dala shpatlar kuchsiz pelitlashgan va sossyuritlashgan.

Leykokratli granitlar. Tog' jinsi strukturasi gipidiomorf – o'rta donali, teksturasi massiv. Granitlar izometrik ko'rinishdagi kvars, kaliyli dala shpati (ba'zan mikroklin panjarali qo'shaloqlari bilan) donalaridan va kam miqdorda tartibsiz tarqalgan rutil kristallaridan tashkil topgan.

Tog' jinsining tarkibida rangli alyumosilikatlarning umuman uchramasligi o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Ziyovuddin tog'larida turli tarkibdagi daykali hosilalar keng tarqalgan, ulardan diorit-porfiritlar, granodiorit-porfirlar, granit-porfirlar, lamprofirlar, leykograditlar, aplitlar va pegmatitlar kuzatiladi.

Diorit porfirit daykalari shimoliy – g'arbiy yo'nalishga ega va ularning qalinligi 1-2,5 m dan, bir necha o'nlab metr gacha boradi. Tog' jinsi to'q kulrang, porfirli strukturaga ega. Porfir ajralmalari asosan plagioklazlardan tashkil topgan. Asosiy massa plagioklaz, amfibol va kam miqdorda kvarsdan iborat.

Mayda donali kvarsli diorit-porfirit. Strukturasi gipidiomorf mayda donali, meta o'zgarishlar natijasida o'zgargan. Teksturasi massiv. Ko'proq xloritlashgan va sossyuritlashgan, kamroq karbonatlashgan. Mineralogik tarkibi: plagioklaz 55-60%, kvars 5-7%, kaliyli dala shpati 5-10%, rogovaya obmanka 3-5%, biotit (xlorit bilan) 10-15%, magnetit 1-2%, leykoksen 1-2%, kalsit 2-3%, granat kamroq, aloxida mikrodonalarni tashkil etadi.

Biotitli granodiorit-porfir (tarkibida rogovaya obmanka uchramaydi). Granodiorit kuchsiz sossyuritlashgan va xloritlashgan. Mineral tarkibida quyidagi minerallar ishtirok etadi: Plagioklaz (nordon) 40-45%, kvars 20-25%, biotit 10-15%, kaliyli dala shpati 10-15%, leykoksen+xlorit biotitning hoshiyalari va yoriqlari bo'ylab rivojlangan. Stukturasi gipidiomorf donali. Teksturasi massiv.

Lamprofirlar asosan Oqmozor intruzivida keng tarqalgan bo'lib, ular turli tarkibga ega va shimoliy-sharqiy yo'nalishda cho'zilgan. Ushbu daykalarning

uzunligi 1 km gacha va qalinligi 15 m gacha yetadi. Intruzivning janubiy qismida amfibol tarkibli (vogezit) daykalar kuzatiladi.

Lamprofir daykalari Qo'shquduq intruzivida ham tarqalgan va nodir metalli ma'danlashuvdan keyin shakllanganligi e'tirof etilgan (V.M.Petrov, 1965).

Kersantit. Tog' jinsining strukturasi panidiomorf-mayda donali, teksturasi massiv. Tog' jinsining mineral tarkibi: plagioklaz 40-45%, biotit 40-45%, kvars 10-15%, apatit 1-1,5%. Odatdagi malxitga qaraganda tog' jinsi rogovaya obmankaning yo'qligi bilan ajralib turadi. Odatiy kersantit uchun, ushbu tog' jinsining strukturasi an'anaviy emas.

Turli donali tomirli pegmatoidli granit. Strukturasi gipidiomorf donali, mikrokataklitik elementlari bilan, kuchsiz albitlashgan va epidotlashgan. Mineralogik tarkibi: kvars 35-40%, kaliyli dala shpati 35-40%, plagioklaz (albitlashgan) 15-20%, turmalin 2-3%, seritsit 0,3-0,5% dan tashkil topgan. Tog' jinsi kvars va kaliyli dala shpati miqdori yuqoriligi bilan, tarkibi va strukturasi bo'yicha, hamda kristallari hosil qilgan hoshiyalar, pegmatitlar uchun xos xususiyatdir.

Turli metall konlari bilan bog'liq bo'lgan ma'dan oldi metasomatitlarini tadqiq qilish, nafaqat nazariy balki amaliy ahamiyat kasb etadi: myetasomatitlarni nazariy jihatdan o'rganish orqali ushbu tog' jinslari va ular bilan bog'liq ma'danlarning hosil bo'lishiga oid muhim ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin; amaliy jihati esa, ular gidrotermal ma'danli konlarni qidirish uchun ishonchli qidiruv mezonlaridan biri bo'lib xizmat qiladi (Jarikov, Omelyanenko, 1978).

G'arbiy O'zbekistonning nodir metalli, oltin-nodir metalli va oltin konlarining metasomatik hosilalari I.H.Hamrabayev, V.N.Ushakov, M.I.Ismailov, M.S.Kuchukova, A.M.Musayev, V.F.Protsenko, D.S.Sher, Ch.X.Arifulov, A.A.Kremenetskiy, X.R.Raxmatullayev, I.P.Sherban, N.V.Kotov, N.M.Zairi, P.F.Ivankin, M.S.Karabayev va b., tomonidan o'rganilgan.


Maydondagi tog' jinslarining mineral tarkibi va mineral assotsiatsiyalarning o'zaro munosabatlarini aniqlash natijasida Ziyovuddin tog'larida keng tarqalgan metasomatik hosilalardan bo'lmish skarnlarning vujudga kelish sharoitlari aniqlandi. O'rganilayotgan hududning karbonatli tog' jinslari asosan ohaktosh va ular tarkibidagi qatlamsimon (qalinligi 2,5-3 m) dolomitlardan iborat.

Yirik donali piroksenli skarnlar. Metasomatitning mineral tarkibi quyidagicha (%): piroksen 15-20, aktinolit (ikkilamchi) 25-40, yirik donali kalsit 40-45; strukturasi turli donali, teksturasi shlifda dog'simon. Skarnning asosiy massasi ko'proq aktinolitlashgan va karbonatlashgan.

Tadqiqot maydonida ushbu hosilalar Mayzak intruzivining shimoliy-sharqiy ekzokontakt qismida keng tarqalgan. Bu joyda intruzivning birinchi fazasi bo'lgan granit porfirilar qamrovchi karbonatli jinslar ichida uncha katta bo'lmagan 50-80 metrlik shtoksimon apofizalarni hosil qilgan. Shtoklarning apikal qismlarida qamrovchi ohaktoshlar tarkibida qalinliklari 8-10 metrgacha bo'lgan bir nechta dolomit qatlamlari joylashgan.

Dolomitlar bo'yicha ko'p sonli tomirsimon (qalinliklari 5-12 sm) skarnlar namoyon bo'lgan va ular o'ziga xos zonallikga ega (markazdan chetga qarab): 1—diopsidli skarn; 2—diopsid-forsteritli skarn; 3—forsterit-kalsit-dolomitli kalsifir; 4—

och rangli marmarlashgan dolomitlar; 5-to‘q kulrangdagi birlamchi dolomit (1-rasm).



1-rasm. Mayzak maydonida dolomitlar bo‘yicha rivojlangan tomirli skarnlar: a – tub ochilmalar bo‘yicha sxematik ko‘rinishi: 1-zamonaviy hosilalar; 2-marmarlashgan ohaktoshlar; 3-dolomitlar qatlami; 4-ohaktoshlar qatlami; 5-granit-porfir; 6-yoriqlashuv zonarlari; 7- diopsid-forsterit skarn oldi tog‘ jinsi (kalsifir); 8-diopsid-forsteritli skarn; 9- diopsidli skarn; 10-amfibol-shyelitli ma‘danlashuv; b – tomirli skarn tanalaridagi zonallik: 1-marmarlashgan dolomitlar; 2-kalsitli marmar; 3-diopsid-forsterit-kalsitli skarn oldi tog‘ jinsi (kalsifir); 4-diopsid-forsteritli skarn; 5-diopsidli skarn; 6-yoriqlar bo‘ylab amfibollashuv zonasi (alohida shyelit zarralari bilan).

Keyingi jarayonlar natijasida ushbu tomirli skarnlashuv zonalarining markaziy qismi bo‘ylab yoriqlar shakllangan va postmagmatik jarayonlar bosqichida ushbu yoriqlardan gidrotermal suyuqliklar infiltratsiyasi amalga oshadi. Natijada yoriqlar bo‘ylab skarn mineralari o‘zgaradi - piroksenlar bo‘yicha amfibol shakllanadi. Ba’zi xollarda amfibollashuv zonalarining markaziy qismida kvars va mayda donali shyelit kuzatiladi.

Skarnlarning qayta o‘zgarish jarayonlari va ularning mineralogik-petrografik tavsifi maydonning zamonaviy erozion sathida ma‘dan-metasomatik ustunining yuqori kesimi ochilib yotganligidan dalolat beradi.

Tegishli geologik-strukturaviy sharoitlar mavjudligi - granitoid intruziv kontakti, kontakt yuzasining yotiq holatda bo‘lishi, asosiy massivning aloxida kichik apofizalari, magmatik xosilalarning geokimyoviy ixtisoslashuvi, shimoliy-sharq yo‘nalishidagi burdalanish xududlari va boshqa geologik-mineralogik omillar

asosida ushbu maydonning pastki qismlari ahamiyatliroq nodir myetalli va oltin ma'danlashuvga istiqbolli ekanligi e'tirof etilgan.

Maydondagi nisbatan keng tarqalgan metasomatik xosilalar sirasiga granitoidlar bo'yicha mineral hosil bo'lishning postmagmatik bosqichida rivojlangan tomirsimon greyzenlashuv kiradi.

Mayzak intruzivi granit porfirlarida tik yo'nalishda o'tgan kulrang, qalinligi 2-3 sm bo'lgan kvarts tomirlari atrofida granit porfirlarda greyzenlashuv jarayonlari kuzatiladi. Ba'zan Mayzak va Gunjak intruzivining apikal qismlarida butun massa bo'ylab greyzenlashuv tarqalgan. Metasomatitlar bir xil miqdordagi kvarts, kaliyli dala shpati va muskovitlarning yirik agregatlaridan tashkil topgan.

Greyzenlashuv o'ziga xos zonallikga ega. Bevosita kvarts tomiriga yondashgan qismi qalinligi 3-5 sm bo'lgan yirik donali (1,5-2 sm gacha muskovit, kvarts, ortoklaz va kam xolatda biotit) kristallaridan iborat bo'lgan zona joylashgan. Ortoklaz kristallari uzunchok izometrik, prizmatik shakllarga ega, muskovit ham deyarli bir yo'nalishda cho'zilgan 1,5-2 sm kattalikdagi leystlarni hosil qiladi. Kvarts esa yuqoridagi minerallar oraliqlarini to'ldiradi.

Undan keyingi zona 2,5-3 sm qalinlikga ega. Bu zonada avvalgi zonaga nisbatan mineral tarkibida kvarts, muskovit, ortoklazlardan tashkari kamroq granit porfir qoldiqlari uchraydi. Ushbu zonada mineral agregatlarining kattaligi 0,5-1 sm gacha yetadi. Asosan bu yerda izometrik kristallarni hosil qiluvchi mineral ortoklaz hisoblanadi. Metasomatik kalonkaning keyingi - granit porfirlarga yondashgan qismida 6-7 sm qalinlikdagi qayta kristallangan yirik donali granit-porfirlar joylashgan.





Birlamchi granitoidlarga nisbatan greyzenli metasomatitlar tarkibida kremnezemning nisbatan yuqori miqdordaligi va natriy, alyuminiylarning kamligi o'ziga xos xususiyatlardan biri xisoblanadi.

Ishning **“Oqmozor, Gunjak va Mayzak intruzivlarining petrokimyoviy va geokimyoviy tavsifi”** nomli to'rtinchi bobi intruziv tog' jinslarning petrokimyoviy va geokimyoviy xususiyatlariga bag'ishlangan bulib kimyoviy tahlil natijalari asosida magmatik hosilalarning petrokimyoviy koeffitsiyentlari va normativ tarkiblari aniqlangan.

Kimyoviy tahlil natijalari intruziv tog' jinslarining tasniflash maydonlarida tutgan o'rnini aniqlash maqsadida TAS-diagrammasiga ($\text{SiO}_2\text{-Na}_2\text{O+K}_2\text{O}$) tushirildi va o'rganilayotgan hududdagi granitoidlar asosan normal va o'rta ishqorli (subishqorli) ekanligi aniqlandi (2 a-rasm).

Magmatik hosilalarning birlamchi tarkibiy xususiyatlari, genetik jihatdan ma'lum bir magmatik seriyalarga taalluqligini, magmaning differentsiatsiya evolyusiyasini talqin qilish uchun AFM ($\text{Na}_2\text{O+K}_2\text{O-FeO+Fe}_2\text{O}_3\text{-MgO}$) va $\text{CaO-Na}_2\text{O-K}_2\text{O}$ uchburchagi va boshqa maxsus diagrammalardan foydalanildi. Xususan AFM diagrammasida Ziyovuddin tog'lari intruziv tog' jinslari ohak-ishqorli seriya maydoniga to'g'ri keladi va ular ushbu seriyaga mansubligini ko'rsatadi (2-b rasm). $\text{CaO-Na}_2\text{O-K}_2\text{O}$ tarkibiy diagrammada Oqmozor, Gunjak, Mayzak massivlarining tog' jinslari natriy va kaliy oksidlarining oraliq maydonlarini egallagan. Ishqorlar miqdorlariga ko'ra intruziv tog' jinslari kaliy-natriyli seriyaga mansubligi aniqlandi.

Petrologik tadqiqotlarda yuqorida keltirilgan diagrammalardan tashqari, magmatik eritmaning petrogenezini tuzishda qoʻllaniladigan turli binar diagrammalar mavjud.



2-rasm. Ziyovuddin togʻlari intruziv togʻ jinslari tarkibining TAS ($\text{SiO}_2\text{-Na}_2\text{O+K}_2\text{O}$; Sharpenok va b., 2013), AFM va Xarker diagrammalarida tutgan oʻrni. 1-3 – yirik donali biotitli granitlar (1-Oqmozor, 2-Gunjak, 3-Mayzak); 4-5 – mayda donali leykokratli granitlar (4-Oqmozor, 5-Gunjak); 6-7 – granit daykalar (6-Oqmozor, 7-Gunjak); 8-9 – aplit daykalari (8-Oqmozor, 9-Mayzak).

Ular orasida Xarker diagrammasi keng foydalaniladi. Bunda asosiy petrogen oksidlar va kremniy oksidlarining miqdorlari solishtirildi. Xarker diagrammasidagi alyuminiy, temir, magniy titan, kaliy, kalsiy va natriy oksidlarining tarqalishi tahlili shuni koʻrsatadiki, Ziyovuddin togʻlari granitoidlari togʻ jinslari bir evolyutsion chiziq boʻylab yotadi. Bu esa ushbu nordon tarkibdagi intruziv togʻ jinslarining hosil boʻlishi yagona magmatik oʻchoq bilan bogʻliqligini anglatadi. Tadqiqot obʻektlari hisoblangan Oqmozor, Gunjak va Mayzak intruzivi togʻ jinslari tarkibidagi kimyoviy elementlar tarqalish miqdorini zamonaviy usullar (mass-spektrometr ICP-MS) yordamida oʻrganildi va maʼdanli hamda ularga hamroh elementlar miqdori koʻrsatgichlari elementlar klarkiga nisbati aniqlandi (1 – jadval).


Ziyovuddin tog‘lari intruziv tog‘ jinslarida elementlar klark ko‘rsatgichlari

Tog‘ jinslarining tavsifi	Oqmozor intruzivi														
	Cu	Zn	As	Se	Mo	Ag	Sn	Sb	Te	W	Pt	Pb	Bi	Th	U
Elementlar klarki (Ovchinnikov, 1990)	53,00	68,00	1,80	0,07	1,20	0,07	2,30	0,30	0,00	1,40	0,01	13,00	0,19	10,00	2,60
Yirik donali granit (8)	12,92	51,37	26,87	2,58	2,49	0,41	8,36	0,58	0,04	4,87	0,01	25,92	0,70	18,52	3,66
Klark konsentratsiyasi	0,24	0,76	14,93	36,79	2,07	5,79	3,64	1,92	12,96	3,48	1,26	1,99	3,71	1,85	1,41
Mayda donali granit (8)	7,44	18,02	31,02	1,41	2,20	0,32	8,89	0,87	0,04	2,19	0,00	35,78	0,37	14,33	2,38
Klark konsentratsiyasi	0,14	0,26	17,23	20,17	1,83	4,58	3,86	2,91	13,45	1,56	0,73	2,75	1,97	1,43	0,91
Diorit daykasi (8)	18,80	62,62	9,57	3,09	2,78	0,41	3,89	0,97	0,06	0,47	0,01	11,46	0,08	11,83	6,58
Klark konsentratsiyasi	0,35	0,92	5,32	44,11	2,31	5,85	1,69	3,25	18,89	0,33	1,39	0,88	0,43	1,18	2,53
Granodiorit daykasi (10)	14,46	93,01	17,12	0,34	4,58	0,58	4,60	0,74	0,10	19,91	0,00	214,47	14,60	7,17	4,40
Klark konsentratsiyasi	0,27	1,37	9,51	4,86	3,81	8,23	2,00	2,47	33,00	14,22	0,22	16,50	76,83	0,72	1,69
	Gunjak intruzivi														
O‘rta donali granit (9)	27,09	16,10	0,10	9,19	59,00	0,07	9,16	0,27	0,00	1,17	0,00	17,00	0,38	5,79	0,63
Klark konsentratsiyasi	0,51	0,24	0,06	131,27	49,17	0,97	3,98	0,91	0,33	0,83	0,02	1,31	1,98	0,58	0,24
Mayda donali granit (8)	45,60	20,05	20,91	2,78	77,42	0,11	24,65	1,04	0,00	8,77	0,00	18,42	1,78	3,95	1,27
Klark konsentratsiyasi	0,86	0,29	11,62	39,75	64,52	1,56	10,72	3,48	0,33	6,27	0,02	1,42	9,38	0,39	0,49
Granitlarda ksenolit (8)	30,24	4,62	0,31	9,54	161,18	0,00	4,02	0,18	0,00	3,52	0,00	16,65	0,10	3,81	0,68
Klark konsentratsiyasi	0,57	0,07	0,17	136,23	134,32	0,01	1,75	0,61	0,33	2,51	0,02	1,28	0,52	0,38	0,26
Lamprofil daykasi (8)	105,94	237,96	20,75	2,41	82,38	0,53	11,02	0,40	0,00	9,35	0,00	26,43	1,17	31,29	7,03
Klark konsentratsiyasi	2,00	3,50	11,53	34,37	68,65	7,57	4,79	1,33	0,33	6,68	0,76	2,03	6,17	3,13	2,70
Diorit daykasi (9)	39,14	62,22	4,85	0,10	55,34	0,25	3,55	0,32	0,00	0,50	0,00	15,37	0,17	9,71	4,78
Klark konsentratsiyasi	0,74	0,91	2,69	1,43	46,11	3,56	1,54	1,07	0,33	0,36	0,02	1,18	0,87	0,97	1,84
	Mayzak intruzivi														
Yirik donali granit porfir (8)	31,74	47,79	6,06	3,44	70,93	0,45	6,56	0,56	0,00	10,28	0,00	28,69	0,30	11,22	2,58
Klark konsentratsiyasi	0,60	0,70	3,37	49,09	59,11	6,45	2,85	1,86	0,44	7,34	0,15	2,21	1,59	1,12	0,99
Mayda donali granit (9)	30,01	22,67	6,62	0,10	68,54	0,10	5,82	0,36	0,00	13,76	0,00	28,37	0,34	9,15	1,81
Klark konsentratsiyasi	0,57	0,33	3,68	1,43	57,12	1,36	2,53	1,19	0,33	9,83	0,75	2,18	1,80	0,92	0,70
Granitlarda ksenolit (8)	32,36	60,15	31,15	3,54	71,94	0,22	9,76	1,35	0,00	1,85	0,00	20,91	0,45	13,28	1,19
Klark konsentratsiyasi	0,61	0,88	17,31	50,50	59,95	3,12	4,24	4,49	0,33	1,32	0,02	1,61	2,36	1,33	0,46
Granit daykasi (10)	42,12	8,94	11,75	3,55	75,36	0,23	4,39	0,70	0,00	3,15	0,00	21,96	4,50	3,70	1,80
Klark konsentratsiyasi	0,79	0,13	6,53	50,78	62,80	3,24	1,91	2,33	0,33	2,25	0,02	1,69	23,70	0,37	0,69
Aplit daykasi (9)	42,86	12,24	90,00	0,10	70,86	0,12	2,48	0,38	0,00	2,55	0,00	25,78	0,28	1,97	1,39
Klark konsentratsiyasi	0,81	0,18	50,00	1,43	59,05	1,71	1,08	1,27	0,33	1,82	0,02	1,98	1,45	0,20	0,53

*qavs ichida namunalari soni

Umuman olganda ushbu massivlarning geokimyoviy xususiyatlari bir-biriga yaqin. Tavsiflanayotgan intruzivlarda oltin va nodir metalli ma’danlashuvi uchun qidiruv darakchilar hisoblangan selen, vismut, margumush, kumush, tellur, molibden, volframlarning klark konsentratsiyalari yuqoriligi aniqlandi. Olingan ma’lumotlar ushbu tog‘ jinslar asl-nodir metalli ma’danlashuvga istiqbolli ekanligidan dalolat beradi. Nodir yer elementlari tarqalishining diagrammasi orqali Ziyovuddin tog‘laridagi intruziv tog‘ jinslarining magmatik rivojlanish evolyusiyasining xossalarini aniqlash mumkin. Diagrammada namoyon bo‘lgan yevropiy elementi minimumi ushbu granitoid massivlarning hosil bo‘lishi yagona magmatik o‘choq bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning “**Intruziv tog‘ jinslarining aksessor minerallari va ularning tarkibiy xususiyatlari**” beshinchi bobida intruziv tog‘ jinslarining mineral tarkibi zamonaviy mikromineralogik usullar yordamida o‘rganish xulosalari keltirilgan. Avvalgi tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan aksessorlar – rutil, siron, apatit, ortit, monatsit, ksenotimlardan tashqari bir qator yangi minerallar - ilmenorutil, torit, torianit, sironotorit, ittroapatit, ittrialit, gadolinit, nenadkevichit, plyumbotantalit, koffinit va tortveytit aniqlandi hamda ularning morfologik va kimyoviy xususiyatlari tavsiflandi (3-rasm; 2-jadval).



3-rasm. Yirik donali granitlar tarkibidagi aksessor minerallarning morfologik xususiyatlari.

2-jadval

Ziyovuddin tog‘lari granitoidlaridagi aksessor minerallarning kimyoviy tarkibi

Mineral	SiO ₂	TiO ₂	FeO*	V ₂ O ₃	CaO	Y ₂ O ₃	Al ₂ O ₃	ZrO ₂	PbO	HfO ₂	ThO ₂	UO ₂	CdO	P ₂ O ₅	HEЭ	Σ
Sirkonotorit	24,7	-	-	-	2,2	7,9	-	23,8	-	-	38,6	-	-	-	3,2	100
	18,8	-	1,3	-	1,7	9,0	-	23,9	0,8	-	36,4	-	2,3	0,7	4,1	99,1
	15,6	0,6	1,7	-	4,5	6,8	-	24,4	-	-	33,7	-	1,0	5,8	4,8	99,1
Sirkon	30,1	-	-	-	-	-	-	65,1	-	-	0,4	2,7	-	-	0,0	98,4
	30,7	-	-	-	-	-	-	58,6	-	4,3	-	1,1	-	-	1,5	96,2
	30,2	-	-	-	-	-	-	64,5	-	3,6	-	0,8	-	-	0,8	99,8
Rutil	1,1	90,1	2,0	1,7	0,3	-	0,4	-	-	-	-	-	-	-	1,7	97,2
	0,7	89,1	3,2	1,8	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	4,7	99,4
	0,6	88,3	3,0	1,8	SnO ₂ =1,0	-	-	-	-	-	-	-	-	-	5,1	99,7
Sirtolit	32,6	-	-	-	-	-	-	59,1	0,7	2,3	1,2	4,9	-	-	0,0	100
Ksenotim	2,5	-	-	-	0,6	47,1	-	-	-	-	3,4	1,2	-	33,5	11,8	100
	-	-	-	-	0,1	46,4	-	-	-	-	3,4	1,2	-	35,4	12,7	99,0
	-	-	0,5	-	0,2	46,7	-	-	-	-	1,5	1,8	-	35,2	13,7	99,5
Monatsit	4,7	-	2,4	-	1,1	-	1,3	-	-	-	6,0	0,3	-	25,0	58,3	99,0
	6,0	-	0,8	-	0,5	-	1,9	-	-	-	2,4	0,1	-	27,5	60,0	99,1
	-	-	-	-	7,3	-	-	-	-	-	1,1	-	-	31,6	59,5	99,5
	-	-	-	-	6,8	-	-	-	-	-	1,0	-	-	31,5	60,7	99,9
Itrotorit	19,0	-	-	-	1,0	26,1	-	9,5	-	-	32,7	3,7	-	2,0	6,5	100
	17,0	-	-	-	1,1	24,3	-	-	-	-	43,7	9,3	-	1,0	3,3	99,7
	17,2	-	-	-	1,3	27,7	1,5	-	-	-	42,7	2,0	1,2	1,4	5,0	100

Tadqiqot natijasi sifatida aksessor minerallar va ular tarkibidagi toriy, uran va nodir yer va boshqa elementlarning yuqori miqdorda ekanligi Oqmozor, Gunjak va Mayzak granitoidlari radioaktiv, nodir metalli hamda nodir yer elementlari ma'danlashuviga istiqbolli ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA

1. Ziyovuddin tog‘laridagi Oqmozor, Gunjak va Mayzak intruziv hosilalari tarkibi bo‘yicha bir-biriga yaqin bo‘lib, ular asosan yirik donali porfirsimon biotitli granitlar va mayda donali leykokrat granitlar, daykali hosilalar esa kvarsli diorit porfirit, leykogradit, granit, apolit, lamprofirlardan tashkil topgan.

2. Hududda tarqalgan intruziv tog‘ jinslarining petrokimyoviy xossalari aniqlandi: ular asosan normal va sub ishqorli qatorga oid bo‘lib, ohak-ishqorli seriyaga, ishqorlar miqdorlariga ko‘ra kaliy-natriyli seriyaga mansubligi hamda ushbu nordon tarkibdagi intruziv tog‘ jinslarining hosil bo‘lishi yagona magmatik o‘choq bilan bog‘liqligi aniqlandi.

3. Magmatik jarayonlar bilan bog‘liq metasomatik hosilalardan tadqiqot maydonida asosan nodir metalli madanlashuvni o‘zida mujassam etgan skarnlar va greyzenlar rivojlangan, kamroq oltin-kumush-sulfidli assotsiatsiyalar shakllanishi bilan bog‘liq apogranitlar uchraydi. Shyelitli minerallashuv metasomatik kolonkaning markaziy qismida – kvarsli zonada ko‘proq joylashganligi asosida amfibollashgan skarnlar, greyzenlashuv va nodir metalli ma‘danlashuv bir paytda rivojlanganligini ko‘rsatadi.

4. Ziyovuddin tog‘lari intruzivlarini zamonaviy mineralogik usullar yordamida o‘rganish natijasida maydon uchun bir qator yangi minerallar (ilmenorutil, torit, torianit, sirkonotorit, ittroapatit, ittrialit, gadolinit, nenadkevichit, plyumbotantalit, koffinit va tortveytit) topildi hamda ularning tipokimyoviy xususiyatlari aniqlandi.

5. Oqmozor, Gunjak va Mayzak intruzivlarining geokimyoviy xususiyatlari bir-biriga yaqin ekanligi va tavsiflanayotgan intruzivlarda oltin va nodir metalli ma‘danlashuvi uchun qidiruv darakchilar hisoblangan selen, vismut, margumush, kumush, tellur, molibden, volframlarning klark konsentratsiyalari yuqoriligi ochib berildi.

Aksessor minerallar va ular tarkibidagi elementlar miqdori, intruzivlarning geokimyoviy xususiyatlari Oqmozor, Gunjak va Mayzak granitoidlari radioaktiv va asl-nodir metalli ma‘danlashuvga istiqbolli ekanligidan dalolat beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ГЕОЛОГИИ И
ГЕОФИЗИКИ ИМЕНИ Х.М.АБДУЛЛАЕВА**

ГУ «ИНСТИТУТ ГЕОЛОГИИ И ГЕОФИЗИКИ»

ОРОЛОВ АЗИЗБЕК КАИМЖАНОВИЧ

**ПЕТРОГЕОХИМИЯ, МИНЕРАЛОГИЯ И РУДОНОСНОСТЬ
ГРАНИТОИДОВ ГОР ЗИАЭТДИН (НА ПРИМЕРЕ АКМАЗАРСКОГО,
ГУНДЖАКСКОГО И МАЙЗАКСКОГО ИНТРУЗИВОВ)**

04.00.03 – Геотектоника и геодинамика. Петрология и литология

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD)
ПО ГЕОЛОГО-МИНЕРАЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2022.4.PhD/GM158

Диссертация выполнена в Государственном учреждении «Институте геологии и геофизики им. Х.М.Абдуллаева».

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного Совета (www.ingeo.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyoNet.uz).

Научный руководитель:	Карабаев Маматхан Садирович доктор геолого-минералогических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Мамарозиков Усмоижон Довронович доктор геолого-минералогических наук Шукуров Анвар Хамракулович доктор философии (PhD) по геолого-минералогическим наукам
Ведущая организация:	ГУП «Регионалгеология»

Защита диссертации состоится «15» сентября 2023 года в 16⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 при Институте геологии и геофизики им. Х.М.Абдуллаева (Адрес: 100164, г. Ташкент, ул. Олимлар, 64г. Тел.: (99871) 209-11-32 (5505); E-XAT: ingeo@exat.uz; E-mail: ingeo@ingeo.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института геологии и геофизики им. Х.М.Абдуллаева (зарегистрирована за № 14). Адрес: 100164, г. Ташкент, ул. Олимлар, 64г. Тел.: (99871) 209-11-32 (5505).

Автореферат диссертации разослан «25» августа 2023 года.

(реестр протокола рассылки № 14 от «25» августа 2023 года)



Х.Д.Ишбаев

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.г-м.н., проф.

Э.М.Амиров

Учебный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.г-м.н. (PhD).

П.С.Султонов

Председатель Научного семинара при Научном Совете по присуждению ученых степеней д.г-м.н., проф.

Хор

ВВЕДЕНИЕ

(аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В последние годы в мировой практике важное значение приобретает изучение интрузивных образований отдельных площадей, с целью прогнозирования месторождений благородных и редких металлов, разработки современных научных основ порода- и рудообразования. Результаты исследований, проводимых в развитых странах по выявлению петролого-геохимических особенностей этих образований служат важным источником информации при решении ряда вопросов, таких как определение их роли в формировании месторождений полезных ископаемых и разработке прогнозно-поисковых критериев.

В настоящее время в мире проводятся ряд целенаправленных исследований по установлению генетической связи между магматическими образованиями и связанными с ними метасоматитами и оруденением. В частности, особое внимание уделяется взаимоотношению кислых гранитоидных интрузий и дайковых образований различного состава с благородно- и редкометальным оруденением, а также созданию научно-обоснованных петролого-геохимических критериев поиска месторождений эндогенных полезных ископаемых.

В Республике проводятся определенные работы по изучению интрузивных и метасоматических пород благородно-редкометальных месторождений в Зирабулак-Зиаэтдинском, Центрально-Кызылкумском регионах Южного Тянь-Шаня. В частности, определены петролого-геохимический, акцессорно-минералогический составы интрузивных образований, установлена роль метасоматитов при формировании эндогенного оруденения. В Стратегии развития Нового Узбекистана для дальнейшего развития Республики Узбекистан определены важные задачи по «Дальнейшему развитию, совершенствованию, ускорению отрасли»¹. В связи с этим представляется важным определение петролого-геохимических особенностей интрузивных образований и связанных с ними метасоматитов гор Зиаэтдин, разработка критериев поиска и их внедрение в практику.

